
Qo'shtepa tumani FVB xodimlari tomonidan profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda

"Chorshanba - favqulodda vaziyatlarni oldini olish va yong'inlar profilaktikasi kuni" munosabati bilan kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish yuzasidan Qo'shtepa tumani FVB xodimlari tomonidan profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Jumladan, aholi yashash xonadonlarida hamda tadbirkorilik sub'yektlarida, shuningdek, ijtimoiy soha ob'yektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar, yong'inlar, is gazidan zaharlanish va gaz-havo aralashmasining chaqnashi, botulizm bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlar olib borildi.

Tadbirlar davomida xonadonlar ko'zdan kechirilib, fuqarolarga isitish pechlari hamda elektr jihozlaridan xavfsiz foydalanish, ularni xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda o'rnatish yuzasidan tushuntirish berildi.

2025-01-15 13:19:09